QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 2-son)

PEDAGOGIKA

PEDAGOGY

INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI XODIMLARINING HAMKORLIKDA ISHLASH MAHORATINI XALQARO BAHOLASH TIZIMI ASOSIDA TAHLIL QILISH

https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.030

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti dotsenti
Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna
TMC instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Ziyamova Madina Jaxongir qizi
+998998199110
madina.7.djaxangirovna@gmail.com

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari jamiyat taraqqiyotining eng muhim bo‘g‘ini sanaladi. Jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodning har tomonlama yetuk shakllanishida maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy salohiyati, hamkorlikda ishlash mahorati va yangiliklarni tez o‘zlashtira olishi muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv usullaridan samarali foydalanish, xodimlar o‘rtasida samarali hamkorlik muhitini shakllantirish, xalqaro baholash mezonlari asosida natijadorlikni aniqlash, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, maktabgacha ta’lim, xodimlar hamkorligi, xalqaro baholash, metodik kompetensiya, jamoaviy ishlash, pedagogik malaka, tizimli tahlil, ta’lim sifati, yangi texnologiyalar.

Аннотация.Дошкольные образовательные организации считаются важнейшим звеном в развитии общества. В развитии общества и всестороннем развитии будущих поколений профессиональный потенциал дошкольных образовательных учреждений, их способность к сотрудничеству и умение быстро осваивать инновации имеют огромное значение. С этой точки зрения, эффективное использование инновационных методов управления в современной системе образования, формирование среды эффективного сотрудничества между сотрудниками и определение эффективности на основе международных критериев оценки относятся к числу актуальных задач современности.

Ключевые слова: инновационное управление, дошкольное образование, сотрудничество персонала, международная оценка, методическая компетентность,

командная работа, педагогическая компетентность, системный анализ, качество образования, новые технологии.

Abstract. Preschool educational organizations are considered the most important link in the development of society. In the development of society and the comprehensive development of the future generation, the professional potential of preschool educational institutions, their ability to work in cooperation and the ability to quickly master innovations are of great importance. From this point of view, the effective use of innovative management methods in the modern education system, the formation of an environment of effective cooperation between employees, and the determination of effectiveness based on international assessment criteria are among the urgent tasks of today.

Keywords: innovative management, preschool education, staff cooperation, international assessment, methodological competence, teamwork, pedagogical competence, systematic analysis, quality of education, new technologies.

KIRISH . Har bir tashkilotning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun boshqaruv tizimi doimiy tarzda yangilanib borishi, jahon andozalariga mos va zamonaviy talablarga javob bera olishi lozim. Innovatsion boshqaruv mazmunan an’anaviy yondashuvlardan farq qilib, har bir xodimning ijodkorlik salohiyatini namoyon etishiga, mustaqil fikrlashga, o‘z ustida ishlashiga, zamonaviy metod va yondashuvlarni tez o‘zlashtirishga imkon beradi. Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida, maktabgacha ta’lim tizimida ham boshqaruv usullari zamonaviylashtirilib, xalqaro reytinglar uchun moslashtirilgan baholash tizimi joriy etilmoqda. Innovatsion boshqaruv usullarining asosiy yo‘nalishlari qatoriga elektron boshqaruv tizimlarini joriy qilish, xodimlar o‘rtasidagi ochiq munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, natijadorlikka asoslangan baholashni rivojlantirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib amaliyotga tadbiq qilish, jamoaviy ijodkorlik va hamkorlikni takomillashtirish kabi omillar kiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xodimlarning hamkorlikda ishlash mahoratini rivojlantirishda menejment, pedagogika, psixologiya, axborot texnologiyalari sohalari o‘zaro integratsiyalashgan holda, yagona boshqaruv tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xodimlarning hamkorlikda ishlash malakasi tashkilotning ijodiy muhitini mustahkamlash, har bir xodimning o‘zaro hurmat, ishonch asosida ishlashini ta’minlash, maqsadlarga erishishda jamoa bo‘lib faoliyat yuritishni targ‘ib qilish orqali shakllanadi. Jahon tajribasida eng ilg‘or ta’lim tizimlarida hamkorlikda ishlash strategiyalari omilkor jamoaviy boshqaruvga asoslanadi. Ushbu boshqaruv yo‘nalishi orqali xodimlar nafaqat pedagogik vazifalarni ijro etadi, balki o‘zaro maslahatlashish, o‘qitish va o‘rganish, natijalarni tahlil qilish,

yangiliklarni tez o‘zlashtirish, innovatsiyalarga ochiqlik kabi bir qator muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Xalqaro baholash tizimlarining tahlili ko‘rsatadiki, eng samarali ta’lim tashkilotlari ochiq muloqot, jamoaviy mas’uliyat, natijaviylikka intilish, kasbiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhitga ega. Bu borada xodimlarning hamkorlikda ishlash malakasini baholash uchun PISA, TALIS, TIMSS, ICILS, PIRLS kabi xalqaro dasturlar va reyting ko‘rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilinadi. Mazkur tizimlarda xodimlarning metodik bilimlari, interaktiv yondashuvlardan foydalanish darajasi, texnologik savodxonligi, kommunikativ ko‘nikmalari va bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyillari har tomonlama o‘rganiladi. Aynan xalqaro baholash natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy yetukligi va hamkorlik madaniyati yuksak ekanligidan darak beradi [1].

Innovatsion boshqaruvga asoslangan yondashuv xodimlarni yangi bilim, ko‘nikma va jihatlarni tezda o‘zlashtirishga undaydi. Bunday yondashuvda rahbarlar zamonaviy strategik boshqaruv metodlarini o‘zlashtiradi, xodimlar o‘rtasida motivatsiya va kasbiy hamkorlikni kuchaytiradi, har bir xodimda liderlik fazilatlarini shakllantiradi va natijada o‘zaro hamjihatlik, o‘zaro yordam va zamonaviy ishlash atmosferasini yaratadi. Innovatsion boshqaruv yo‘nalishida muhim jihatlardan biri – erkin muloqot, ochiqlik va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Xalqaro baholash tizimi orqali tashkilot rahbari va pedagoglar o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilib, natijalari asosida kuchli va zaif tomonlarni aniqlaydi, ularga mos strategiyalarni belgilaydi. Bu yondashuv maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mana shunday muhit yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining xalqaro baholashlar natijalanishiga e’tibor qaratilayotgani, xodimlarning malaka oshirish kurslariga muntazam jalb etilishi, ularni zamonaviy bilimlar bilan boyitish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va amalda qo‘llash ham tashkilotlarning natijadorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Innovatsion boshqaruvda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali kommunikatsiya vositalari, axborot texnologiyalari, onlayn maslahat va treninglar, jamoaning har bir a’zosining o‘z salohiyati va tashabbusini namoyon etishi muhim rol o‘ynaydi. Globalizatsiya va raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida pedagogik jamoalar o‘zaro tajriba almashishni, ilg‘or metodikalarni amaliyotga tadbiq qilishni, doimiy rivojlanishni ustuvor vazifa sifatida belgilashmoqda. Rahbar va pedagoglar zamonaviy innovatsion boshqaruv tamoyillarini o‘zlashtirgan holda, hamjihatlikda ishlash va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni hayotga tatbiq etmoqda. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha ta’lim taraqqiyotiga xizmat qiladigan salohiyatli va zamonaviy muhitning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Yangi davr boshqaruv yo‘nalishlarida asosiy maqsad har bir xodimning o‘z ishiga bo‘lgan fidoyiligini oshirish, jamoaga sodiqlik va innovatsiyalarga ochiqlikni rag‘batlantirish,

xalqaro baholashda ijobiy natijalarga erishishdan iborat. Xalqaro tajribada xodimlarning bir-biri bilan hamkorlikda ishlashga tayyorligi va o‘zaro yordam ko‘rsatish darajasi tashkilotning obro‘-e’tibori, xalqaro reytinglardagi o‘rni va umumiy maqsadlarga erishish omili sifatida baholanadi. Bugungi globallashuv sharoitida ham, maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldida hamkorlikda ishlash madaniyatini kengaytirish va innovatsion boshqaruv usullarini tobora takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan. Tashkilot ichidagi o‘zaro ishontiruvchi baholash, ochiqlik, o‘zaro ishonch orqali ijodiy muhit shakllanadi, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan har bir tashabbus kelajak avlod uchun mustahkam zamindir [3].

Xodimlarni xalqaro baholash mezonlari asosida rivojlantirish ularda yangi bilim va ko‘nikmalar shakllanishiga, o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga sabab bo‘ladi. Innovatsion boshqaruv tizimining asosiy vazifasi pedagoglar jamoasining yanada mustahkam hamkorlik muhitini yaratish va xalqaro reytinglarda yetakchi o‘rinlarni egallashiga xizmat qilishi lozim. Bunda asosiy ustunlik kommunikatsion madaniyatni rivojlantirish, erkin muloqot organlarini kuchaytirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or axborot texnologiyalarini keng joriy etishga qaratiladi. Yaxshi tashkil etilgan hamkorlik tizimi maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining sohadagi zamonaviy talablarni to‘liq o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga davlat tomonidan katta e’tibor qaratilyapti. Xususan, ta’lim sifatini oshirish, xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash, malakali pedagog kadrlar tayyorlash va ularga zamonaviy ko‘nikmalarni o‘rgatish borasida qator davlat dasturlari va strategiyalar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar doirasida innovatsion boshqaruv prinsiplarini hayotga tatbiq etish, xodimlarning kooperatsiyasini oshirish va xalqaro baholash tizimi talablariga mos ilg‘or tajribalarni joriy etish asosiy vazifa sifatida belgilangan [4].

Bugungi global ahamiyatga ega yangiliklar va jahon ta’limidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish orqali maktabgacha ta’lim sohasida ham zamonaviy boshqaruv texnologiyalari doirasida faoliyat olib borish mumkin. Tashkilotda xodimlarning o‘zaro hamkorligi, faol muhokama va tajriba almashinuvi, umumiy natijaga yo‘naltirilgan birgalikda ishlash madaniyatini rivojlantirish - innovatsion boshqaruv orqali ijobiy natijalarga erishishda muhim omillardandir. Aynan mana shu jihatlarni xalqaro baholash tizimi yordamida aniqlash va tahlil qilish, xodimlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish darajasini baholashda keng imkoniyat yaratadi. Xodimlarni xalqaro yetakchi dastur va treninqlar asosida rivojlantirish orqali tashkilot boshqaruvi va pedagogik faoliyatdagi raqobatbardoshlik oshiriladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, xalqaro baholash tizimiga moslashtirilgan boshqaruvning zamonaviy uslublari tashkilotlarda ijodkorlik, tashabbus va hamkorligini mustahkamlaydi. Shu asosda tashkilotlar faoliyatining samaradorligi, xalqaro reytinglardagi nufuzi va yangi zamonaviy talablarga mos innovatsion fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishiga yetaklaydi [5].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruvni tatbiq etish, xodimlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va xalqaro baholash mezonlari asosida natijadorlikni oshirish uchun doimiy o‘qitish, metodik ko‘mak va axborot resurslarini taqdim etish zarur. Zamonaviy pedagogik boshqaruv mezonlari xodimlarning ilmiy-qidiruvchanligini, liderlik fazilatlarini namoyon etishga, erkin fikr almashishga va kreativ yondashuvga yanada keng yo‘l ochadi. Yangi fenomenlarni tezda o‘rganish, jamoa a’zolari o‘rtasida ochiq muloqot va baholash orqali natijalar yuqorilaydi. Innovatsion boshqaruvda xodimlarning hamkorlikda ishlash mahorratini xalqaro baholash tizimi orqali chuqur tahlil qilish, tashkilotda o‘zaro maslahat jarayonlarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida axborot almashish va og‘zaki hamkorlik madaniyatini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Har bir tashkilotda individual-psixologik xususiyatlarni hisobga olish, faollik va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, sohadagi yangiliklarni tezda qamrab olish imkonini yaratadi. Ta’lim tizimida mustahkam sog‘lom, bilimli va zamonaviy fikrlashga ega avlodni tayyorlash faoliyatidagi muhim omil – xodimlarning umume’tirof etilgan xalqaro ko‘rsatkichlarga javob bera olishi hamda mustahkam hamkorlik muhitining shakllanishidir. O‘tgan yillarda olib borilgan islohotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion boshqaruv va xalqaro baholash tizimi asosida xodimlarning zamonaviy ko‘nikmalari yuksalmoqda, tashkilotlarda ilg‘or tajribalardan samarali foydalanmoqda, kasbiy kompetensiyalar takomillashmoqda. Tashkilotda hamkorlikda ishlash madaniyati, xalqaro andozalarga mos keluvchi kasbiy rivojlanish va boshqaruv innovatsiyalarining joriy qilinayotgani maktabgacha ta’lim tizimining nufuzini oshiradi [6].

Maktabgacha ta’lim bosqichi har bir bolaning kelajakdagi o‘sishi, ijtimoiylashuvi va ta’lim sifatiga asos bo‘ladigan eng muhim poydevor hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda bolalarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar berish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun global trendlar bilan hamohang bo‘lish nihoyatda muhim. Bu borada xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA, TALIS, TIMSS, ICILS va PIRLS kabi loyihalar maktabgacha ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. PISA dasturi asosan o‘quvchilarning idrok, tahlil, tanqidiy va ijodiy tafakkurini, hayotiy muammolarni mustaqil hal qila olish ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazadi. Maktabgacha ta’limda esa bolalarda xuddi shunday ko‘nikmalarni erta rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, maktabgacha bosqichda bolalarga berilgan dastlabki bilim va ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qish, o‘rganish va tashabbuskorlik asoslarini belgilaydi. PISA natijalari mamlakatlarda ta’lim sifatini xalqaro miqyosda tahlil qilish, maktabgacha ta’limda ham xalqaro tajribalarni tatbiq etish uchun muhim vositadir. TALIS dasturi asosan o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari boshqaruvchilari faoliyatini baholaydi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun ham bu dastur o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini, ularning o‘z ustida ishlashi va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishini rag‘batlantirishga xizmat qiladi. TALIS yondashuvlari orqali bog‘cha

pedagoglarining malakasi, zamonaviy metodikalarni amaliyotga tatbiq etish holati va bola bilan ishlash samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida bolalarning individual va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. TIMSS va PIRLS dasturlari esa asosan bolalarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligi darajalarini o‘rganadi. Maktabgacha bosqichda matematika va savodxonlikka dastlabki qiziqish va asoslarning qo‘yilishi bolalarning keyingi bosqichlarda o‘quv motivatsiyasi va natijadorligining oshishiga sabab bo‘ladi. TIMSS va PIRLSdan olingan ilg‘or tajribalar, metodika va tavsiyalar asosida maktabgacha ta’lim dasturlarini boyitish, bolalarga tanqidiy va mantiqiy tafakkur ko‘nikmasini berish uchun xizmat qiladi. ICILS dasturi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini baholaydi. Zamonaviy maktabgacha ta’limda informatsion savodxonlik va raqamli ko‘nikmalar asoslarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda bolalar raqamli makonda ulg‘aymoqda va ularda axborotni izlash, tahlil qilish, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining erta yoshdan shakllanishi kelajakda ularning iqtisodiy va intellektual raqobatbardoshligini oshiradi. Xalqaro baholash dasturlari maktabgacha ta’lim tashkilotlariga o‘z faoliyatlarini chuqur tahlil qilish, metodikalarni xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish va natijalarni global me’yorlar bilan solishtirib borishga imkon beradi. Bu dasturlar orqali turli mamlakatlar tajribasi o‘rganilib, eng samarali va innovatsion yondashuvlar joriy etiladi. Natijada, maktabgacha ta’lim sohasida sifatli rivojlanish, bolalardagi o‘rganishga qiziqish va motivatsiyaning ortishi, ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro maydonda yuqori natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

PISA, TALIS, TIMSS, ICILS va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining maktabgacha ta’limda ahamiyati nihoyatda kattadir. Ular orqali bog‘cha yoshidagi bolalarning rivojlanishidagi zamonaviy yondashuvlar o‘zlashtiriladi va pedagoglar ilg‘or tajribalar asosida faoliyat olib boradi. Bu esa kelajak avlodni zamon talablari darajasida yetuk inson qilib tarbiyalash uchun muhim zamin yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruv usullari asosida xodimlarning hamkorlikda ishlash mahoratini xalqaro baholash tizimi asosida o‘rganish hamda takomillashtirish orqali tashkilotning rivojlanishi va yuqori natijalarga erishishiga keng imkoniyat yaratiladi. Bunday yondashuv jamoada doimiy o‘sish, har bir xodimning salohiyatini to‘liq namoyon eta olishini, jamoadagi sog‘lom raqobat va ijodiy muhitning shakllanishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda, tashkilotda motivatsiya, o‘zaro yordam, natijadorlikka intilish hamda zamonaviy boshqaruv trendlari asosidagi faoliyat yuqori samaradorlikka va xalqaro reytinglarda yetakchi o‘rinlarni egallash uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakda innovatsion boshqaruv va xalqaro baholash tizimining integratsiyasi maktabgacha ta’lim

sohasida yanada yuksalish, kasbiy kompetensiyalar va ilg‘or tajribalar simbiozi uchun ilg‘or asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, L. (2020). Axborot texnologiyalari asosida maktabgacha ta'limni boshqarish. Xalq ta'limi va pedagogika, 12(4), 32-40.

2. Ilhom S., Kizi S. G. N. (2022). Early students in mathematics formation of fundamentals of economic knowledge.

3. Ismoilova, F. (2019). Pedagogik kadrlarni malakasini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Maktabgacha ta'lim metodikasi, 8(3), 78-84.

4. Nizamov, M. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari. Oliy ta'lim va pedagogika ilm-fani, 6(1), 25-34.

5. Sobirjonovich S. I. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishning lingvo-didaktik shart-sharoitlari. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 3(4), 124-130.

6. Toshkentov N. (2018). Maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 5(2), 45-52.

7. Yusupov, S. (2017). Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish: maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi amaliyot. Ta'lim strategiyasi, 9(1), 58-64.